

SOLIQ TO'LOVCHILARNING MAJBURIYATLARI BAJARILISHINI TA'MINLASHNING GNOSEOLOGIK ASOSLARI XUSUSIDA

Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich,

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti o'qituvchisi, PhD.

Annotatsiya: Maqolada davlat fiskal maqsadlari barqarorligini ta'minlashda hamda soliq siyosatining hozirgi zamon talablariga moslashuvchanligiga erishish sharoitida soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlashning zarurligi, mohiyati, omillari va xususiyatlari masalalari tadqiq etilgan. Mamlakatimizda soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlashning jahon amaliyoti va xorij tajribalari asosidagi rivojlanish xususiyatlari tadqiq etilgan hamda uning holatini baholashning xalqaro reyting agentliklari qo'llayotgan tizimini O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi ko'rsatmalari bilan qo'llash tizimining ustunliklari hamda o'ziga xos samaralari ilmiy asoslab berilgan hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: soliq munosabatlari, soliqlar tizimi, soliq majburiyatlari, soliq majburiyatlarning bajarilishi, soliq majburiyatlarining bajarilishini ta'minlash, soliq majburiyatlarining bajarilishi natijalarini baholash, soliq qarzi, soliqlarning yig'iluvchanligi.

KIRISH

Jahon miqyosida davlat fiskal maqsadlari barqarorligini ta'minlashda hamda soliq siyosatining hozirgi zamon talablariga moslashuvchanligiga erishishning diqqat markazida – aynan soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlash masalasi yotganligini alohida ta'kidlash joiz. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish moliyaviy asoslarining shakllanishiga ijobiy ta'sir etishning samarali usullaridan biri - soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlashdir. Jahon soliq amaliyoti, taraqqiy etgan mamlakatlarning soliqqa tortishga oid boy ijobiy tajribalari bilan qiyoslaganda O'zbekiston Respublikasida zamonaviy talablarga javob beradigan soliq tizimi modernizatsiyasi va samarali soliq ma'muriyatchiligini shakllantirish o'zining ilk qadamlarini qo'yayotganligi, uning taraqqiyoti iqtisodiyot ravnaqi uchun muhim mexanizm ekanligi soliq tizimidagi shiddatli islohotlarning borishini, bu sohaga oid soliq amaliyotidagi tizimli o'zgarishlarni real baholashning katta ahamiyatini belgilaydi. Bugungi kunda ko'plab munozaralarga sabab bo'layotgan soliq tizimi islohining alohida bir yo'nalishi sifatida soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlash maqsadida soliq ma'muriyatchiligi samarali faoliyatini tashkil etishga oid munosabatlarni o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Dunyoning taraqqiy etgan davlatlarida hozirgi globallashuv sharoitida soliq yukini kamaytirish, soliq turlarini unifikatsiya qilish va soliq stavkasini pasaytirish, soliqlarni to'lash va soliq hisobotlarini taqdim etishning elektron tizimini rivojlantirishda zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash, biznesni yuritish uchun qulay investitsion iqlim va ishbilarmonlik muhitini yaratish masalasiga alohida e'tibor

berilmoqda.

Mustaqillik yillari davomida mamlakatimiz soliq tizimi murakkab rivojlanish va taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi va bu boradagi islohotlar izchil takomillashib bormoqda. Jumladan, istiqbolning dastlabki yillarida, mamlakatimiz soliq tizimi davlat byudjeti taqchilligini kamaytirish va daromad qismini mustahkamlashga yo'naltirilib, korxonalar foydasiga yuqori stavkalarda soliq solinishi belgilangan bo'lsa, soliq islohotlarining keyingi bosqichlarida korxonalarning mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishini rag'batlantirish, eksport qiluvchi korxonalarni qo'llab-quvvatlash, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirishga o'tildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI.

Soliq Kodeksi, boshqa qonunosti hujjatlarda soliq to'lovchilarning majburiyatlari tizimiga, uning shakllari va ko'rinishlariga, soliq majburiyatlariga yaxlit ta'rif berilmagan hamda soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlashning tartibi belgilanmagan. Shu bilan birga, iqtisodiy adabiyotda fiskal ijro barqarorligini ta'minlash maqsadida soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishining ahamiyatini ta'riflashda yagona yondoshuv yo'qligini ko'rishimiz mumkin. Xorij adabiyotlarida ushbu kategoriya negizida aksariyat hollarda davlat strategik soliq menejmentining muhim baholovchi ko'rsatkichi tushuniladi. Jumladan, Karolla Pessino va Rikardo Fenochiyetto (Carola Pessino & Ricardo Fenochietto, 2016) tadqiqotlarida qayd etilishicha, soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlash mamlakatda amal qiluvchi moliyaviy qonunchilik asosida korxona soliq to'lovlari, imtiyozlari va amaldagi soliq rejimidan samarali foydalanish asosida soliq tushumlari real ijrosi hamda davlatning soliqli daromadlar asosidagi moliyaviy imkoniyatlari istiqbollari tushuniladi[1].

Buyuk Britaniyaning Birmingem universiteti professori U.Eyvis hamdo'stlik mamlakatlari misolida soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlash va moliyaviy barqarorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tatbiq etib, soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlash soliqdan qochish, soliq solinadigan aktivlar va daromadlarni yashirish holatlarini kamaytirish orqali soliq solish bazasini mustahkamlagan hamda soliq to'lovchilar tomonidan xarajatlarni samarali boshqarilishiga sabab bo'lgan. U.Eyvisning xulosa qilishicha, soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlash hamdo'stlik mamlakatlari fiskal barqarorligini mustahkamlab, ularda davlat tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun mablag'lar ajratishi bilan izohlanadi[2].

Jorj Chun-Yan Kuo (George Chun-Yan Kuo, 2015) soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlashni hozirgi zamon sharoitida fiskal ijro barqarorligiga erishishning muhim yo'nalishi deb qarab, bunda soliq to'lovchilarning soliq to'lay olish yoki davlatning daromad olish qobiliyati balansi e'tiborda bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi[3].

AQSHning Massachusetts texnologiyalar instituti professori H. Schubert soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishi holati past bo'lgan mamlakatlarda moliyaviy inqiroz riski yuqori bo'lishi, agar soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishi holati yaxshilanmas ekan, hech qanday iqtisodiy vosita bilan moliyaviy barqarorlikni

ta'minlashning imkoni yo'qligini tasdiqladi[4].

Tahlillar ko'rsatishicha, iqtisodiy adabiyotda soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlashni nazariy asoslashda bir necha ilmiy yondoshuvlar mavjud[5]:

Ba'zi mualliflar tomonidan esa "soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini soliq to'lovchilar va soliq organlari tomonidan fiskal vazifa ijrosi samaradorligi ko'rsatkichi"[6] sifatida tushuntiriladi. Bu tushunchani qonunchilik asosida belgilanadigan soliq to'lash bo'yicha majburiyatlarining bajarilishi sifatida ta'riflash mumkin.

Bir qancha mualliflar "soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishi mohiyatini soliq organlari faoliyatining reyting ko'rsatkichi"[7] sifatida e'tirof etganlar.

Ayrim iqtisodchilar "soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishi holatini baholash ko'rsatkichi soliq bo'yicha byudjetga qarzdorlik mavjudligi orqali hisoblanishi"[8] ni ta'kidlamodalar. Umuman, soliqqa tortish amaliyotiga oid iqtisodiy adabiyotda va mualliflarning ilmiy chiqishlarida soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishi holati va uni yaxshilash tadbirlari mazmuni sifatida turli tushunchalar talqin qilinmoqda. Ushbu mavzuning yangiligi va kam o'rganilgan tabiati yosh olimlar va amaliyotchilarning unga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Ilmiy maqolada tadqiq maqsadi. Yangi O'zbekistonda soliq tizimi modernizatsiyasi istiqbollari hamda "O'zbekiston-2030" Strategiyasining soliq masalalariga oid vazifalarida soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlashning gnoseologik asoslarini yanada takomillashtirish bo'yicha xulosalar chiqarishdan iborat.

Ilmiy maqolada tadqiq obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasining soliqqa tortish amaliyoti maydonga chiqadi.

Ilmiy maqolada tadqiq predmetini – Yangi O'zbekistonda soliq tizimi modernizatsiyasi istiqbollari soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlashning gnoseologik asoslariga oid munosabatlar tashkil etadi.

Ilmiy maqolada tadqiq usullari. Tadqiqotda tizimli yondashuv, tasniflash, mantiqiy usul, tizimli tahlili, ilmiy abstraksiya va umumlashtirish usullari qo'llaniladi. Xususan, tarkibiy va tizimli tahlillardan foydalangan holda, soliqqa tortish amaliyotining asosiy ko'rsatkichlari tasniflanadi, boshqa omillarni abstraksiyalash orqali, soliq to'lovchilar majburiyatlarining bajarilishini ta'minlashning davlat fiskal vazifalari ijrosiga hamda ular samarali faoliyatini rag'batlantirish dastaklari hayotiyligini ta'minlash masalalari o'rganiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR:

Fiskal barqarorlikka erishish maqsadida soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlash metodologiyasi, samarali vositalarini o'rganish hozirgi zamon fanining yangi va murakkab tadqiq predmeti sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga fiskal barqarorlikka erishish maqsadida soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlash metodologiyasi, samarali vositalarini tadqiq qilishning nazariy-metodologik bazasi hali yetarli darajada tizimlashtirilmagan va u asosan davlat moliyasi, fiskal siyosat va byudjet balansiligi konsepsiyalariga asoslanib qolmoqda.

Bu soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlash konsepsiyasi va metodologiyasi, samarali vositalarini strategik qarash va dasturiy chora-tadbirlar ishlab chiqish nuqtayi-nazaridan ushbu masalaning metodologik va amaliy jihatlarini tadqiq qilishning zarurligini ko'rsatmoqda.

2023-2025-“Fiskal Strategiya”da keng qamrovli iqtisodiy islohotlar negizida qator maqsadlar, jumladan – “ochiq iqtisodiyot, sog'lom raqobat, ishbilarmonlik va investitsiya muhitini tubdan yaxshilash uchun zarur sharoitlarni yaratish; iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy sektorni jadal rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlarini ko'paytirish; iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, mehnat unumdorligini oshirish orqali yuqori iqtisodiy o'sishni ta'minlash; “yashirin” iqtisodiyotga qarshi kurashish, uning hajmini keskin qisqartirish; valyutani erkinlashtirish siyosatini izchil davom ettirish, barqaror monetar siyosatni amalga oshirish; iqtisodiyotni rivojlantirishga doir strategik vazifalarni ro'yobga chiqarishga qodir malakali kadrlarni tayyorlash” kabilar qo'yilganligi va ushbu maqsadlarga erishish uchun qo'yilgan ustuvor vazifalar tarkibida aynan soliq siyosatini takomillashtirishga oid vazifalarni alohida ta'kidlash o'ta muhim ahamiyat kasb etadi: “...fuqarolarimiz soliqdan qochish emas, uni vaqtida to'lashdan manfaatdor bo'lishi kerak”[9], kyelgusi o'rta muddatli davrda fiskal siyosat tashqi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyatning O'zbekistonga ta'sirini yumshatishga, makroiqtisodiy va fiskal barqarorlikni ta'minlashga, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish, aholining muhtoj qatlamini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, uzoq muddatli inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratiladi[10].

“Mamlakatimizda soliq siyosatini takomillashtirish Konsepsiyasi qabul qilingach, soliq tizimi modernizatsiyasi amalga oshirilib kelinmoqda va bu sharoitda davlatning samarali soliq siyosatini ta'minlash maqsadida “halol (intizomli) soliq to'lovchilarni yanada rag'batlantirish”, “daromadlarni legallashtirish va “yashirin iqtisodiyot” ulushini kamaytirish”, soliq munosabatlarida “soliq organlari va soliq to'lovchilarning “hamkorlikda o'sish”ga asoslangan yangi muloqoti tizimiga o'tish”, “soliq tizimi ijtimoiyligi va adolatligining o'sib borishi” kabi mutanosibliklarni o'zaro muvofiqlashtirish hamda uyg'unlashtirish lozim”[11].

1-jadval

Gnoseologik yondashuv asosida soliq majburiyatlarini bajarish jadvali

№	Gnoseologik kategoriya	Mazmuni	Soliq sohasidagi ifodasi	Ta'sir etuvchi omillar
1	Bilish (tanish) jarayoni	Insonning bilim olish va anglash jarayoni	Soliq qonunchiligini anglash va qabul qilish	Huquqiy savodxonlik, axborot manbalari
2	Bilim	Obyektiv borliq haqidagi ma'lumotlar yig'indisi	Soliq stavkalari, imtiyozlar va majburiyatlar haqida bilim	Ta'lim tizimi, axborot texnologiyalari
3	Ong	Shaxsning voqelikka munosabati	Soliq to'lashga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabat	Madaniyat, ijtimoiy muhit
4	Idrok	Axborotni qabul qilish va qayta ishlash	Soliq tizimini tushunish darajasi	Axborotning ochiqligi, shaffoflik
5	Tafakkur	Mantiqiy fikrlash jarayoni	Soliq yukini baholash va qaror qabul qilish	Iqtisodiy bilim, tahlil qobiliyati
6	Qadriyat	Jamiyatdagi muhim	Soliq to'lashni fuqarolik	Milliy qadriyatlar,

		tamoyillar	burchi sifatida qabul qilish	tarbiya
7	Ishonch	Davlat va tizimga bo'lgan ishonch	Soliq organlariga ishonch darajasi	Davlat siyosati, adolatlilik
8	Motivatsiya	Harakatga undavchi omillar	Soliqlarni o'z vaqtida to'lashga intilish	Jarimalar, imtiyozlar, rag'bat
9	Tajriba	Amaliy faoliyat natijasi	Soliq to'lash bo'yicha amaliy ko'nikmalar	Amaliyot, maslahat xizmatlari
10	Axborot muhiti	Ma'lumotlar tarqalishi tizimi	Soliq to'g'risidagi ma'lumotlar shaffofligi	OAV, internet, raqamlashtirish

Davlat o'zining oldiga qo'ygan vazifalarni o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash uchun fiskal barqarorlikka erishish maqsadida soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlash obyektiv zaruriyat hisoblanadi. Davlat tomonidan tegishli funksiyalarning bajarilish zaruriyati soliqlarning o'z vaqtida undirilishini obyektiv zarur qilib qo'yadi. Bu funksiyalarni moliyaviy mablag'larsiz to'liq bajarishning iloji bo'lmaydi.

MUHOKAMA

Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlashtirish qoidalarini asosida soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlashning yangicha talqinini berishimiz mumkin: "soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlash – yaxlit tashkiliy-huquqiy asoslarda soliq munosabatlari subyektlarining hamkorlikda o'sishga erishish orqali ixtiyoriylik asosida hisoblangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning byudjetga o'z vaqtida va bir maromda to'liq tushishini ta'minlashga karatilgan, rioya etilishi lozim bo'lgan tartib-qoidalar va tadbirlar majmuidir".

Fiskal barqarorlikka erishish maqsadida soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlash real holatining yuqori yoki pastligi soliqlar bo'yicha yuzaga keladigan byudjetga qarzdorlik darajasiga bevosita bog'liq bo'lib, qarzdorlik qancha kam bo'lsa, soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishi shuncha yuqori bo'lishi bilan baholanadi. Shuning uchun, bu ikki ko'rsatkich darajasiga bir qator omillar ta'sir qiladi. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

1. Soliq siyosatining adolatliliigi. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Soliq kodeksining 10-moddasida ta'kidlanganidek, adolatlilik prinsipi quyidagilarni nazarda tutadi: "Soliqlar va yig'imlar kamsitish xususiyatiga ega bo'lishi hamda ijtimoiy, irqiy, milliy, diniy va boshqa shu kabi mezonlardan kelib chiqqan holda qo'llanilishi mumkin emas. Mulkning shakliga, jismoniy shaxslarning fuqaroligiga yoki kapitalning kelib chiqish mamlakatiga qarab farqlangan soliq stavkalarini, soliq imtiyozlarini yoki boshqa afzalliklarni belgilashga yo'l qo'yilmaydi. Fuqarolarning o'z konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishiga to'sqinlik qiladigan soliqlarni belgilashga yo'l qo'yilmaydi".

2. Soliq to'lovchilarning soliq to'lashni to'g'ri tashkillashtirganligi.

Soliq to'lovchilar o'zlarining zimmasiga yuklatilgan soliq to'lovlarni to'lay olishi, soliqlarni bir maromda, uzluksiz, belgilangan miqdorlarda kelib tushishini ta'minlaydi, bu esa bir vaqtning o'zida soliqlar prognoz ko'rsatkichlarning bajarilishiga ta'sir qiladi. Shu nuqtayi-nazardan olganda soliq to'lovchilarning soliq to'lashni to'g'ri tashkillashtirganligi soliqlarning yig'iluvchanligiga ta'sir etuvchi

muhim omillardan biri bo'lib hisoblanadi.

3. Soliq to'lovchilar soliq madaniyatining rivojlanganligi. Soliq to'lovchilar tomonidan soliq majburiyatlarining bajarilishi, ya'ni ularning davlat soliq xizmati organlarida o'z vaqtida hisobga turishi, hisobotlarni tuzishi va o'z vaqtida taqdim etishi, soliqlarni o'z vaqtida to'lab borishi soliqlarning yig'iluvchanligini oshirishga xizmat qiladi.

4. Soliq solish tizimining soliq to'lovchilar uchun tushunarli bo'lishi va soliq qonunchiligining barqarorligi. Soliq solish tizimining soliq to'lovchilar tomonidan tushunarli, aniq va sodda bo'lishi, hech qanday ikkilanishlariga yo'l qo'yilmasligi, soliqdan qochish uchun hech qanday bo'shliqlarning bo'lmasligi, soliq qonunchiligining ko'p yillar davomida o'zgarmay turishi, ular tomonidan o'ziga yuklatilgan majburiyatlarni to'liq bajarilishini ta'minlaydi, shu bilan birga soliq tushumlari ortadi, yig'iluvchanlik ta'minlanadi.

5. Idoralararo axborot almashinish tizimining yetarli darajada takomillashganligi. Soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog'liq obyektlarning o'z vaqtida hisobga olinishini ta'minlash, vakolatli organlar va tashkilotlar mansabdor shaxslarining soliq solish masalalari bilan bog'liq bo'lgan axborotni o'z muddatida taqdim etish bo'yicha mas'uliyatini kuchaytirish, moliya organlari, manfaatdor vazirlik va idoralar, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlikni yanada kengaytirish, tashqi manba ma'lumotlar bazalarini shakllantirishda vazirlik, idora va tashkilotlar tomonidan idoralararo axborot almashinish tizimining yetarli darajada takomillashganligi soliqlar hisobini yuritish sifatini oshiradi, bu o'z navbatida soliq bazasini kengaytirishga olib keladi, davlat byudjetiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning barqaror tushib turishini ta'minlaydi.

6. Soliq to'lovchilarga samarali va sifatli servis xizmatlari ko'rsatishning tashkil etilganligi. Soliq to'lovchilarga to'g'ridan to'g'ri muloqotsiz interaktiv va axborot xizmatlarining ko'rsatilishi, davlat soliq xizmatlari qoshida maslahat markazlarining tashkil etilganligi soliqlarni hisoblash, taqdim etish va to'lash jarayonlarini tezlashtiradi va natijada soliq intizomiga rioya etilishi darajasi ortadi.

Umuman, soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlash zarurligini asoslovchi muhim talablar va shart-sharoitlar mazmuni soliq munosabatlari ishtirokchilarining soliq qonunchiligi doirasida davlat moliyaviy xavfsizligi maqsadida fiskal bazaning ta'minlanishini hamda soliq to'lashning ixtiyoriyligi asosida soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishi darajasining o'sib borishi va barqarorligining talab etilishida namoyon bo'ladi:


1. Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlash yo'llarini tizimli tarzda tadqiq etish lozim va uning diqqat markazida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish moliyaviy ta'minotining muhim asosi bo'lmish "davlat fiskal maqsadlari va soliq dastaklari samarali amal qilish mexanizmi" mutanosibligini o'zaro muvofiqlashtirish hamda uyg'unlashtirish orqali uning takomillashgan mexanizmini ishlab chiqish yotishi darkor.

2. Davlat iqtisodiy logistikasi asosida fiskal barqarorlikka erishish maqsadida soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlash metodologiyasi, samarali vositalarining tashkiliy tarkibi va uning mazmuni yoritilishi lozim.

3. Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlashning samarali

yo'llari tadqiqiga yangicha yondoshuv milliy soliq tizimini "davlatning fiskal maqsadlari va samarali soliq dastaklari o'zaro mutanosib va uyg'un amal qilishi"ni ta'minlagan holda mukammallashtirishni, soliqqa tortish amaliyotida subyektlar manfaatlari mushtarakligini ta'minlash va soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlash orqali investitsion faollik hamda soliq tushumlari o'sishi istiqbollari ta'minlashga xizmat qilishi lozim.

Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlash yo'llarini iqtisodiy tizimlashtirish qoidalari asosida yangicha mazmunda tadqiq etish bu jarayonni bir vaqtning o'zida uch darajadagi tizimli munosabat ishtirokchilari maqsadli faoliyati yig'indisi sifatida qarashni talab etadi (1-rasm).




1-rasm. Fiskal barqarorlikka erishishda soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlashning yangicha mazmuni⁷⁷

Fiskal barqarorlikka erishish maqsadida soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlashning yangicha mazmunini asoslash uchun korxonada soliqlarni rejalashtirish amaliyotida soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlash tamoyillarini alohida tadqiq etish lozim.

Umuman, korporativ soliqlarni rejalashtirish amaliyotida soliq to'lovchilarning

⁷⁷ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

majburiyatlari bajarilishini ta'minlash tamoyillarini rioya etilishi muhim bo'lgan talablar va shart-sharoitlar yig'indisi sifatida ifodalash mumkin (2 -rasm).



2-rasm. Korxonada soliqlarni rejalashtirish amaliyotida soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlash tamoyillari⁷⁸

O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasiga muvofiq ishlab chiqilgan va 2020-yildan kuchga kirgan yangi tahrirdagi Soliq Kodeksi soliq qonunchiligini qo'llashni maksimal darajada soddalashtirish, qarama-qarshiliklar va tushunmovchiliklarni bartaraf etish, insofli soliq to'lovchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirishni ko'zda tutayotganligi, shuningdek, soliq nazorati shakllari va mexanizmlarini takomillashtirish, jumladan soliq solish obyektlari va soliq to'lovchilarni to'liq qamrab olish va hisobga olishni ta'minlaydigan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish alohida ahamiyatlidir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlashning gnoseologik asoslarini o'rganish ushbu jarayonning nafaqat amaliy, balki nazariy-metodologik jihatdan ham chuqur va ko'p qirrali ekanligini namoyon etadi. Gnoseologiya — bilish nazariyasi sifatida — soliq munosabatlarida ishtirok etuvchi subyektlarning xulq-atvori, qaror qabul qilish jarayonlari va

⁷⁸ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

ularning soliq majburiyatlariga munosabatini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, soliq intizomini ta'minlash faqat ma'muriy chora-tadbirlar bilan cheklanib qolmasdan, balki soliq to'lovchilarning bilish darajasi, huquqiy ongi va iqtisodiy tafakkuri bilan bevosita bog'liq ekanligi aniqlanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, soliq to'lovchilarning majburiyatlarni bajarishga bo'lgan munosabati ularning axborotga ega bo'lish darajasi, davlatga bo'lgan ishonchi va soliq tizimining adolatliligi haqidagi tasavvurlari bilan uzviy bog'liqdir. Agar soliq to'lovchi soliq siyosatining mohiyatini to'g'ri anglasa, uning ijtimoiy ahamiyatini his etsa va davlat tomonidan yaratilayotgan shart-sharoitlarni adolatli deb baholasa, u holda majburiyatlarni ixtiyoriy ravishda bajarish ehtimoli sezilarli darajada ortadi. Bu esa, o'z navbatida, soliq tushumlarining barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Gnoseologik yondashuv shuni ham ko'rsatadiki, soliq ma'muriyatchiligi tizimida axborotning shaffofligi va tushunarliqligi alohida ahamiyatga ega. Soliq qonunchiligining murakkabligi yoki tushunarsizligi soliq to'lovchilarda noaniqlik va ishonchsizlikni keltirib chiqaradi, bu esa majburiyatlarni bajarmaslikka olib kelishi mumkin. Shu sababli, soliq organlari tomonidan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, interaktiv xizmatlarni rivojlantirish va tushuntirish ishlarini kuchaytirish muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Shu bilan birga, soliq to'lovchilarning bilish jarayoni ijtimoiy-iqtisodiy muhit, madaniy qadriyatlar va ta'lim darajasi kabi omillar ta'sirida shakllanadi. Demak, soliq intizomini oshirishda faqat iqtisodiy yoki huquqiy mexanizmlar emas, balki ta'lim, targ'ibot va ijtimoiy ta'sir usullarini ham uyg'unlashtirgan holda qo'llash maqsadga muvofiqdir. Xususan, soliq madaniyatini shakllantirish, yosh avlodga moliyaviy savodxonlikni oshirish orqali uzoq muddatli ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlashning gnoseologik asoslari mazkur jarayonni kompleks va tizimli yondashuv asosida o'rganishni taqozo etadi. Bunda bilish jarayoni, axborot sifatini oshirish, huquqiy ongni shakllantirish va davlatga bo'lgan ishonchni mustahkamlash asosiy ustuvor vazifalar sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur omillarning uyg'unlashuvi soliq tizimining samaradorligini oshirishga, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga hamda jamiyatda yuqori soliq madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotlar va tahlillar shuni ko'rsatadiki, Yangi O'zbekistonda soliq tizimi modernizatsiyasi istiqbollari hamda "O'zbekiston-2030" Strategiyasining soliq masalalariga oid vazifalarida soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlashning gnoseologik asoslarini yanada takomillashtirish uchun quyidagi tezkor tadbirlar ko'rilishi lozim:

1. O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasiga muvofiq ishlab chiqilgan va 2020-yildan kuchga kirgan yangi tahrirdagi Soliq Kodeksi soliq qonunchiligini qo'llashni maksimal darajada soddalashtirish, qarama-qarshiliklar va tushunmovchiliklarni bartaraf etish, insofli

solıq to'lovchılarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirishni ko'zda tutayotganligi, shuningdek, solıq nazorati shakllari va mexanizmlarini takomillashtirish, jumladan solıq solish obyektlari va solıq to'lovchılarni to'liq qamrab olish va hisobga olishni ta'minlaydigan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish alohida ahamiyatlidir.

2.Soliqlarni to'lamaslik, solıq to'lashdan bo'yin tovlash, solıq to'lovchi sifatida ro'yxatda turmaslik va boshqa shu kabi solıq huquqbuzarlik hamda solıqqa oid jinoyatlar esa solıqlarning huquqiy munosabatlar bilan chambarchas bog'liq holda bo'lishini bildiradi.

3.Solıq to'lovchılarning majburiyatlari bajarilishi darajasi nafaqat davlat, iqtisodiyot tarmog'i yoki alohida hudud miqyosidagi fiskal barqarorlikka erishishning barcha shakllariga va ayniqsa, solıq to'lovchılar majburiyatlari bajarilishini ta'minlashning konseptual asoslari va shartlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, Yangi O'zbekistonda solıq tizimi modernizatsiyasi istiqbollari hamda "O'zbekiston-2030" Strategiyasining solıq masalalariga oid vazifalarida solıq to'lovchılarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlash davlatning fiskal imkoniyatlarining ortib borishini hamda solıq to'lovchılarning manfaatdorliklari orqali ularning iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi faol ishtirokini ta'minlaydi. O'rganilgan strategiyaga muvofiq, davlat moliyaviy barqarorligini ta'minlash, iqtisodiyotda solıq yukini kamaytirish, solıq to'lovchılar faoliyatida "solıq to'lashning ixtiyoriyligi" tamoyili ustuvorligini ta'minlash, solıq to'lovchılar majburiyatlarini bajarishlarini ta'minlash, O'zbekistonda samarali solıq siyosatini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Pessino, C., & Fenochietto, R. (2016). Determining countries' tax effort.
2. Avis, W. (2016). *Linkages between taxation and stability* (GSDRC Helpdesk Research Report 1346). University of Birmingham.
3. Kuo, C. Y. (2015). Estimation of tax revenue and tax capacity (JDI Executive Programs Working Paper No. 2015-08).
4. Schuberth, H. (2014). Tax policies and financial stability: Lessons from the crisis. <https://doi.org/10.7551/mitpress/9780262018340.003.0006>
5. Berdiyeva, U. A. (2019). Iqtisodiyotni erkinlashtirishda solıqlarning yig'iluvchanligini oshirish yo'llari. *Moliya*, (5), 107–115.
6. Mutalimova, P. M. (2012). Uregulirovaniye nalogovoy zadoljennosti: kompleksnoye resheniye. *Rossiyskoye predprinimatelstvo*, (22), 190–194.
7. Girayev, V. K. (2013). Kompleksnyy podxod k uregulirovaniyu nalogovoy zadoljennosti. *Kazanskaya nauka*, (3), 44–46.
8. Savinov, I. T. (2013). Nalogovaya zadoljennost: problemy administrirovaniya i puti regulirovaniya. *Regionalnyye problemy preobrazovaniya ekonomiki*, (3), 210–213.
9. Sirajudinova, S. I. (2017). Povysheniye effektivnosti nalogovogo administrirovaniya na sovremennom etape (Avtoreferat kandidatskoy dissertatsii). Vladikavkaz.
10. Vilkova, Ye., & Pozov, I. (2013). Sistema pokazateley, karakterizuyushchix

nalogovoye sostoyaniye regiona. *Vestnik Saratovskogo gosudarstvennogo sotsialno-ekonomicheskogo universiteta*, (3), 96–99.

11. Dyakova, Ye. (2012). Nalogovyy potencial i byudjetnaya yemkost territoriy: otlichiya i vzaimosvyaz. *Nalogi i finansovoye pravo*, (9), 140–145.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023). Oliy Majlisga Murojaatnoma (2023-yil uchun ustuvor vazifalar). Toshkent.

13. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. (2022). *Fiskal strategiya: 2023–2025*. Toshkent.

14. Azizov, U. O‘. (2019). Izchil soliq siyosati – iqtisodiy rivojlanish omili. In *O‘zbekistonda harakatlar strategiyasini samarali amalga oshirishda soliq siyosatini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari* (konferensiya materiallari, 6-bet). Toshkent: Iqtisod-Moliya.

15. O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi. (2023). *Soliq ma‘muriyatchiligi bo‘yicha yillik hisobot*. Toshkent.